



MAIN FACTORS OF THE SPIRITUAL RENAISSANCE OF THE TIMURID PERIOD

Ibragimova Muhabbat

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18480621>

ARTICLE INFO

Received: 24th January 2026

Accepted: 30th January 2026

Online: 31st January 2026

KEYWORDS

Timurid Renaissance, Amir Temur, spiritual revival, Institutes of Temur, Naqshbandiya, social justice, scientific patronage, Alisher Navoi, national identity, driving force.

ABSTRACT

This article analyzes the political, legal, economic, and ideological factors of the spiritual revival during the Timurid period. The article reveals the role of the centralized state system and the principles of justice established in the "Institutes of Temur" in ensuring spiritual stability. The significance of the Naqshbandiya teaching as a socio-ethical driving force and the role of Alisher Navoi's heritage in national self-identification are scientifically substantiated.

ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ ДУХОВНОГО ПОДЪЁМА ЭПОХИ ТИМУРИДОВ

Ибрагимова Мухаббат

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18480621>

ARTICLE INFO

Received: 24th January 2026

Accepted: 30th January 2026

Online: 31st January 2026

KEYWORDS

Ренессанс Тимуридов, Амир Темур, духовный подъем, Уложения Темура, Накшбандия, социальная справедливость, научное покровительство, Алишер Навои, национальное самосознание, движущая сила.

ABSTRACT

В данной статье анализируются политические, правовые, экономические и идеологические факторы духовного подъема эпохи Тимуридов. В статье раскрывается роль централизованной государственной системы и принципов справедливости, заложенных в «Уложениях Тимура», в обеспечении духовной стабильности. Научно обосновано значение учения Накшбандия как социально-этической движущей силы и роль наследия Алишера Навои в национальном самосознании.

TEMURIYLAR DAVRI MA'NAVIY YUKSALISHINING ASOSIY OMILLARI

Ibragimova Muhabbat

Yangi asr universiteti o'qituvchisi

Muhabbatibragimova300@gmail.com

Tel: 90 805 37 45

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18480621>

ARTICLE INFO

ABSTRACT



Received: 24th January 2026

Accepted: 30th January 2026

Online: 31st January 2026

KEYWORDS

Temuriylar Renessansi, Amir Temur, ma'naviy yuksalish, Temur tuzuklari, Naqshbandiya, ijtimoiy adolat, ilmiy homiylik, Alisher Navoiy, milliy o'zlik, harakatlantiruvchi kuch.

Ushbu maqolada Temuriylar davri ma'naviy yuksalishining siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va g'oyaviy omillari tahlil qilinadi. Maqolada Amir Temur va Temuriylar tomonidan asos solingan markazlashgan davlat tizimi hamda «Tuzuklar»dagi adolat tamoyillarining ma'naviy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni ochib berilgan. Naqshbandiya ta'limotining jamiyatni ijtimoiy-etikaviy jihatdan harakatlantiruvchi kuch sifatidagi ahamiyati va Alisher Navoiy merosining milliy o'zlikni anglashdagi roli ilmiy asoslangan.

Temuriylar davri nafaqat Markaziy Osiyo, balki jahon sivilizatsiyasi tarixida "Temuriylar Renessansi" nomi bilan mashhur. Bu davr (XIV asr oxiri – XV asr) ilmiy, adabiy va me'moriy yutuqlari bilan ajralib turadi. Ma'naviy yuksalish o'z-o'zidan paydo bo'lmagan, balki Sohibqiron Amir Temur asos solgan mustahkam davlatchilik poydevori va uning vorislari (Shohruh Mirzo, Mirzo Ulug'bek, Sulton Husayn Boyqaro) olib borgan ma'rifiy siyosatning mahsulidir.

Temuriylar davri (XIV asr oxiri – XV asr) Markaziy Osiyo, Xuroson va unga tutash hududlarda ma'naviy, ilmiy va madaniy taraqqiyotning yuksak bosqichi bilan tavsiflanadi. Bu davrdagi ilm-fan va madaniyatning ravnaqi bir nechta omillarga bog'lanadi. Bulardan birinchi navbatda siyosiy-davlatchilik omilini ko'rsatish mumkin. Ulkan hudud yagona saltanatga birlashtirilib, ijtimoiy yuksalishni ta'minladi.

Temuriylar davrida ma'naviy yuksalishning shakllanishi va barqaror rivojlanishida siyosiy-davlatchilik omili hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Amir Temur va uning vorislari tomonidan yaratilgan markazlashgan davlat tizimi, adolat va qonun ustuvorligiga asoslangan boshqaruv hamda hokimiyatning ilm-fan va ma'naviyatga homiyliги jamiyatda barqaror ma'naviy muhit vujudga kelishini ta'minladi.

Birinchi dan: Markazlashgan davlat va siyosiy barqarorlik Amir Temur tomonidan barpo etilgan davlat qat'iy markazlashgan boshqaruv tizimiga asoslangan bo'lib, bu tizim siyosiy parokandalikka barham berdi hamda mamlakatda tinchlik va xavfsizlikni ta'minladi. Siyosiy barqarorlik esa ma'naviy hayotning rivojlanishi uchun asosiy shart hisoblanadi. V.V. Bartold ta'kidlaganidek, Amir Temur davlatni harbiy kuch bilangina emas, balki mustahkam ma'muriy tizim va tartib-intizom orqali boshqargan: «Temur yaratgan davlat tartibi Markaziy Osiyoda uzoq vaqtgacha madaniy va ma'naviy hayotning tiklanishiga xizmat qildi» [1]. Markazlashgan davlat sharoitida shaharlar obod etildi, savdo-iqtisodiy munosabatlar rivojlandi, bu esa ilm-fan, adabiyot va san'at ravnaqi uchun ijtimoiy zamin yaratdi.

Temuriylar davlatida markazlashgan boshqaruv tizimi shunchaki harbiy-ma'muriy xarakterda bo'lmay, balki ilk bor «davlat manfaati — ilm-fan ravnaqi — ijtimoiy adolat» uchligining o'zaro mutanosibligini ta'minlagan. Ya'ni, ilm-fan davlat barqarorligining mafkuraviy tayanchi sifatida xizmat qilgan.



Ikkinchidan: Adolat va qonun ustuvorligi Temuriylar davlat boshqaruvida adolat tamoyili ustuvor o'rin tutgan. Amir Temurning siyosiy-huquqiy qarashlari "Temur tuzuklari" asarida o'z ifodasini topgan bo'lib, unda davlatni adolat bilan idora qilish asosiy prinsip sifatida belgilanadi. Amir Temur shunday deydi: «Adolat bilan ish yuritdim, zolimga yo'l bermadim, mazlumni qo'lladim» [2].

Qonun ustuvorligi jamiyatda ijtimoiy adolat tuyg'usini mustahkamlab, insonlarda davlatga ishonchni oshirgan. Bu ishonch esa ma'naviy barqarorlik va axloqiy muhit shakllanishining muhim omili bo'lgan. Sharafuddin Ali Yazdiy ham Amir Temur faoliyatini tavsiflar ekan, uni adolatparvar hukmdor sifatida ko'rsatadi: «Uning davrida adolat qaror topdi, zulm va beqonunlikka yo'l qolmadi» [3].

Amir Temur va Temuriylar hukmronligida davlat boshqaruvining markazlashuvi xavfsizlik, huquqiy tartib va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlab, ma'naviy hayot uchun qulay imkoniyatlar yaratdi. «Temur tuzuklari»da adolat, ilm ahliga hurmat va ulamolarga e'tibor alohida ta'kidlanadi. Amir Temur ilm ahli, ulamolar, fuzalolar va san'atkorlarni davlat tayanchi sifatida ko'radi. Bu holat ma'naviyatning davlat siyosati darajasiga ko'tarilganini ko'rsatadi. Markazlashgan hokimiyat orqali madrasalar, masjidlar, kitobxonalar va ilmiy muassasalarning faoliyati qo'llab-quvvatlandi. Siyosiy barqarorlik natijasida shaharlar qayta tiklandi, aholining ijtimoiy himoyasi ta'minlandi va ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish uchun zarur sharoitlar vujudga keldi.

Uchinchidan: Iqtisodiy omil Movarounnahr va Xurosonda yagona idora tizimining joriy etilishi iqtisodiy osoyishtalikka, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga olib keldi. Davlat tomonidan dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiqning rivojiga e'tibor berilishi va bu sohada qator tadbirlarning amalga oshirilishi mamlakatning ma'naviy-madaniy taraqqiyoti uchun nihoyatda muhim ahamiyat kasb etdi [4]. Temuriylar davrida savdo yo'llarining tiklanishi, shahar iqtisodiyotining rivoji ma'naviy hayotga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Iqtisodiy farovonlik ilm-fan, adabiyot va san'atni qo'llab-quvvatlash imkonini berdi. Homiylik instituti orqali olimlar va ijodkorlar faoliyati rag'batlantirildi [5]. Iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyot o'zaro bog'liq holda jamiyat kamolotiga xizmat qildi.

Temuriylar davrida shakllangan «Homiylik instituti» faqat hukmdorning xohishiga emas, balki iqtisodiy tizimning (vaqf mulklari va savdo imtiyozlari) ajralmas qismiga aylangan. Bu olimlarga ijtimoiy-iqtisodiy bosimdan xoli ravishda fundamental tadqiqotlar (masalan, astronomiya va matematikada) olib borish imkonini berganligi asoslab berildi.

To'rtinchidan: Ma'naviy omil va madaniy vorislik Bu omil avvalgi madaniy meros, ma'naviy qadriyatlar va boyliklardan keng foydalanish, ular asosida rivojlanishdan iborat bo'ldi. Markaziy Osiyoda avvalgi asrlarda, xususan, IX–XIII asrlarda yaratilgan ma'naviy-madaniy boyliklardan, buyuk muhaddislar va allomalar: Imom Buxoriy, Abu Iso Termiziy, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy merosidan; arab, fors va turkiy tillarda yaratilgan Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Rumiy, Tusiy, Attor kabi allomalar merosidan, musulmon Sharqi ma'naviy merosida keng ahamiyat kasb etgan qadimgi yunon ilmiy-ma'naviy boyliklaridan keng foydalanildi.

Bu davrda Amir Temur saltanatining ta'sirida bo'lgan va bo'lmagan boshqa mamlakatlar o'rtasida madaniy aloqalar tez rivojlandiki, bunday aloqalar ma'naviy boyliklarning o'zaro almashinuviga keng yo'l ochib berdi. Xususan, Eron, Arab



mamlakatlari, Hindiston, Xitoy kabi davlatlar bilan bo'lgan aloqalarda madaniy boyliklar almashinuvi muhim ahamiyat kasb etdi.

Alisher Navoiy faoliyati Temuriylar davri ma'naviy yuksalishining eng yorqin ifodasidir. Turkiy (chig'atoy) tilning adabiy til sifatida rivoji milliy o'zlikni anglashni kuchaytirdi. Navoiyning «Xamsa», «Majolis un-nafois» asarlari ma'naviy-axloqiy qiymatlarni tizimlashtirdi. Shuningdek, «Turkiy tilda ham oliy adabiyot yaratish mumkin» g'oyasi Navoiy merosining markazida turar edi. Alisher Navoiy tomonidan turkiy tilning ilmiy va adabiy maqomga ko'tarilishi shunchaki adabiy hodisa emas, balki Temuriylar saltanatida yashovchi xalqlarning milliy-ma'naviy o'zlikni anglash jarayonini tezlashtirgan asosiy omil sifatida talqin qilindi.

Beshinchidan: G'oyaviy omil – Naqshbandiya ta'limoti Bu omil ma'naviy omilning uzviy davomi bo'lsa-da, uning muhim ahamiyatga ega bo'lganligi va o'z davri ma'naviy hayotida katta rol o'ynaganligi uchun alohida ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Markaziy Osiyoda Yusuf Hamadoniy, Abdulxoliq G'ijduvoniy, Ahmad Yassaviy ta'limotlarini rivojlantirish asosida shakllangan.

Naqshbandiya ta'limoti va uning yirik vakillari XIV–XV asrlardagi siyosiy-ijtimoiy hamda madaniy hayotda nihoyatda muhim rol o'ynadi, ma'naviy o'zgarishlar ma'lum darajada erkinlik uchun g'oyaviy asos, omil bo'lib xizmat qildi. Chunki Bahouddin Naqshbandning “Dil ba yoru, dast ba kor” («Ko'ngil Xudoda bo'lsinu, qo'l ish bilan band bo'lsin») shiori yetakchi tasavvuf namoyandalari bilan birga keng jamoatchilikning hayot tarziga aylangan edi. Bu shior Naqshbandiya tariqatining «Dil ba yoru, dast ba kor» g'oyasi Temuriylar davrida shunchaki diniy taqvodorlik sifatida emas, balki jamiyatni ijtimoiy faollikka, mehnatsevarlikka va tadbirkorlikka yo'naltiruvchi «ijtimoiy-etikaviy motor» vazifasini bajarganligi aniqlandi. Bu esa jamiyatning ma'naviy va moddiy yuksalishi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlagan.

Tariqat asoschisi Bahouddin Naqshband (1318–1389) aynan XIV asrda yashab o'tgan va Yusuf Hamadoniy hamda Abdulxoliq G'ijduvoniy an'alarini yangi bosqichga olib chiqqan. Temuriylar davrida, ya'ni XIV asr oxiri va XV asrda Naqshbandiya ta'limoti Amir Temur va Temuriylar davlatining asosiy mafkurasi darajasiga ko'tarildi [6]. Shuningdek, Xoja Ahror Valiy (1404–1490) tariqatning XV asrdagi eng yirik vakili bo'lib, u siyosiy va ijtimoiy hayotga juda kuchli ta'sir o'tkazgan [7]. Uning davrida tariqat «ma'naviy o'zgarishlar va erkinlik uchun g'oyaviy asos» bo'lib xizmat qilgan.

Amir Temur har qanday holatda ham ruhoni namoyandalariga har vaqt xayrixohlik bilan munosabatda bo'lgan. Hatto zabt etilgan mamlakatlarda ham ruhoni rahbarlar himoya ostiga olinib, ko'pincha ular shaxsan Amir Temur huzuriga keltirilgan — u esa ulamolar va fuzalolar bilan munozara yuritishni yoqtirardi. Jumladan, u ilohiyotchi ulamolar, faylasuflar, tarixnavislar, munajjimu riyoziyot ilmi olimlari bilan munozara qilardi. U olimlarni o'zi bilan shunday munozaralarda bemalol emin-erkin suhbat yuritishga rag'batlantirardi. Agar ular Amir Temurda katta taassurot qoldirsalar, ularni o'z saroyiga yoki Samarqandga xizmatga taklif qilar yoxud o'z mamlakatlarida qolishlariga bag'ri kenglik bilan ruxsat etardi [8].

Sohibqiron Amir Temur va Temuriylar hukmronligi davrida diniy tafakkur jamiyatning ijtimoiy va madaniy qiyofasini belgilab bergan asosiy omillardan biri edi.



Tarixchi A. Yakubovskiy qayd etganidek, Amir Temur turkiy harbiy tabaqaning yirik vakili sifatida doimo islomiy qadriyatlarga sodiqligini namoyish etgan. U kuchli siyosatchi sifatida davlat manfaatlarini ustuvor bilib, islom olamining nufuzli ulamolari va ruhoniylari bilan doimiy, yaqin va o'zaro manfaatli aloqalarni saqlab turgan [9].

Yakuniy xulosa shuki Temuriylar davri ma'naviy yuksalishi tasodifiy hodisa bo'lmay, balki tizimli siyosiy, iqtisodiy va g'oyaviy islohotlar natijasidir. Birinchidan, markazlashgan davlat boshqaruvi va «Tuzuklar»dagi adolat tamoyili ma'naviy taraqqiyot uchun huquqiy kafolat berdi. Ikkinchidan, iqtisodiy farovonlik ilm va san'atning moddiy negizini yaratdi. Uchinchidan, Naqshbandiya ta'limoti insonni ham ma'nan, ham ijtimoiy foydali mehnat orqali kamol topishga yo'naltirgan «g'oyaviy motor» vazifasini bajardi. Bu yuksalish Markaziy Osiyoni jahon sivilizatsiyasining eng yirik intellektual markazlaridan biriga aylantirib, keyingi asrlar ma'naviy rivoji uchun poydevor bo'lib xizmat qildi.

References:

1. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Сочинения. Т. I. – М.: Изд-во восточной литературы, 1963.
2. Temur tuzuklari. / Tarjima va izohlar muallifi: A. Sog'diyonov. – T.: Fan, 1991. – B. 160.
3. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – T.: Sharq, 1997.
4. S. Saiddosimov. Amir Temur jahon tarixida. – T.: Sharq, 2001. –B. 165.
5. Hodgson M. The Venture of Islam. – Chicago: University of Chicago Press, 1974;
6. Spuler B. History of the Mongols. – Leiden: Brill, 1972.
7. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. – B. 168–170.
8. Valixo'jayev B. Xoja Ahror Valiy (Risola). – T.: Adabiyot va san'at, 1993. – B. 12–18.
9. Xilda Xukxem. Vlastitel semi sozvezdiy. – T.: Adolat, 1995. – S. 80–84.
10. O'zbekiston tarixi: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. / R.H. Murtazayevaning umumiy tahriri ostida. – T.: Yangi asr avlodi, 2003. – B. 256.